

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YORMATOVA YOQUTXON NURMATOVNA

TILNING INTONATSION SISTEMASI VA INTERFERENSIYA

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Yormatova Yoqutxon Nurmatovna

Tilning intonatsion sistemasi va interferensiya.....3

Yormatova Yokutkhon Nurmatovna

Intonational system of the language and interference.....23

Ёрматова Ёкутхон Нурматовна

Интонационная система языка и интерференция.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YORMATOVA YOQUTXON NURMATOVNA

TILNING INTONATSION SISTEMASI VA INTERFERENSIYA

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil2023 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasi www.fdu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Hakimov Muhammadxon Xo'jaxonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: Hoshimov G'anijon Mirzaahmedovich
filologiya fanlari doktori, professor
Ziyayev Avazxon Ixtiyarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Samarqand davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 28 avgust 2023-yil soat 09-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105 uy. Tel.: (99873 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (288 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "15" avgust kuni tarqatildi.
(2023-yil "15" avgust dagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.M. **Sh.M. Iskandarova**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T. **M.T. Zokirov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor

A.M. **A. Mamajonov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida globalizatsiya va raqamli iqtisodiyot sharoitida turli madaniyatlar o'rtasidagi jarayonlarning faollashuvi natijasida til va u bilan bog'liq muammolar yechimiga qaratilgan qator tadqiqotlar yaratilmoqda. Ayniqsa, tilshunoslikning fonetika sathiga oid intonatsiya, interferensiya va bilingvizm masalalari tahliliga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida intonatsion hodisalar, interferensiya va uning o'ziga xos jihatlari hamda uni yuzaga chiqaruvchi til birliklarining tadqiq etilishi psixolingvistika, sotsiolingvistika va kontakt lingvistika kabi tilshunoslikning turli sohalari rivoji uchun xizmat qilmoqda. Hozirga qadar jahon tilshunosligida amalga oshirilgan izlanishlarda asosiy e'tibor muammoning nazariy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilar nutqiga doir qiyosiy-eksperimental tadqiqotlarda o'zbek tili sohiblarining interferensiya holatlari yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Mamlakatimizda tilshunoslik va tillararo aloqalarni o'rganish borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu kabi tadqiqotlarda til kontaktlarining namoyon bo'lishida diskursiv vaziyatning xilma-xilligi, nutqdagi psixologik va lingvistik jihatlarni ajratish masalalari yoritilgan bo'lib, o'zbek tili sohiblari nutqidagi interferensiya holatlarini yoritish hozirgi o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Yurtimizda bugungi kunda "Davlat tilining sofliqini saqlash, uni boyitib borish, ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish"¹ kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilishi milliy tilni ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy asosda tadqiq qilishni yangi bosqichga ko'tarishga, turli-tuman vazifalarni va ular bilan bog'liq bo'lgan masalalarni belgilab berishga xizmat qiladi. O'zbekiston jahonga yuz tutar ekan, tilshunoslik sohasida nazariy jihatdan yetakchi yo'nalishlar bilan hamqadam bo'lgan umumnazariy tadqiqotlar olib borish, o'zbek tili egalarining ingliz tili matnlarini talaffuz qilishdagi prosodik muammolari tillararo qiyosiy lingvistik tavsifini yaratish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-6084-сонли Фармони. Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. –Тошкент, 2020 йил 20 октябрь.

o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon va qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida intonatsiya va uni tadqiq etish muammosini Jon Xart, R.Kingdon, J.J.Russo, L.Armstrong va I.S.Uord, G.E.Palmer, V.Kuk kabi olimlarning izlanishlari²da, XX asrning 50-yillaridan boshlab esa rus tilshunosligida N.S.Trubetskoy, A.M.Peshkovskiy, T.M.Nikolayeva, M.I.Matusevich, N.D.Svetazarova, N.V.Cheremisina, A.M.Antipova, L.A.Kanter, Y.A.Brizgunova, L.R.Zinder, L.V.Shcherba, L.K.Seplitis, N.V.Cheremisina-Enikolopova, N.I.Jinkinlar o‘z tadqiqotlari³da yoritishga harakat qilganlar.

² Hart J. 1551: The Opening of the Unreasonable Writing ... > Danielsson, B. ed. 1955; P. Кингдон. Практика в английской интонации. 1958г., 184 стр.; Руссо Ж.Ж. Избранные сочинения. т. 1 М.: Госполитиздат, 1961, 851 с.; Armstrong L.E., Ward I.C. A Handbook of English Intonation Текст. / L.E.Armstrong, I.C.Ward. Cambridge CUP, 1963. – 236 p.; Palmer H. E. English Intonation with Systematic Exercises / H. E. Palmer. – Cambridge : Heffer, 1924. – 105 p.; Cook V. Active Intonation. – London: Longmans, 1968. *» 99 p.

³ Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М.: Ин.Лит. 1960, 372 с.; Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М., 1959, 252 с.; Матусевич М.И. Современный русский язык. Фонетика. – М.: Просвещение, 1979. – 288 с.; Николаева Т.М. Лингвистика: избранное. – Москва: Языки славянской культуры, 2013. – 621 с.; Николаева Т. М. Фразовая интонация славянских языков. – Москва: Наука, 1977. – 277, [1] с.; Матусевич М. И. Современный русский язык: Фонетика. – Москва: Просвещение, 1976. – 288 с.; Светозарова Н.Д. Интонационная система русского языка. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1982. – 175с. – Режим доступа: <http://dropdoc.ru/doc/453528/intonacionnaya-sistema-russkogo-yazyka>; Светозарова Н.Д. Просодическая организация высказывания и интонационная система языка : дис. ... д-ра филол. наук. – Ленинград, 1983. - 515 с.; Антипова А.М. Ритмическая система английской речи. – М.: Высш. школа, 1984. – 119 с.; Антипова А.М. Система английской речевой интонации. – Москва: Высшая школа, 1979. - 129, [2] с.; Кантер Л. А. Системный анализ речевой интонации. – Москва: Высш. шк, 1988. - 127, [2] с.; Брызгунова Е.А. Звуки и интонация русской речи. – Москва: Рус. яз., 1981. – 279 с.; Брызгунова Е.А. Интонация и синтаксис. – Москва, 1999. – С. 869-902; Зиндер Л.Р.Общая фонетика. – Москва: Высш. шк, 1979. - 312 с.; Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. – Ленинград: Изд-во Ленингр. ун-та, 1958. - Т. 1. - 1958. - 182 с.; Цеплитис Л.К. Анализ речевой интонации / Цеплитис Л.К. – Рига, 1974. -270 с.; Черемисина Н. В. Законы и правила русской интонации: учеб. пособие: Для студентов и преподавателей-филологов, журналистов / Н. В. Черемисина-Ениколопова. – Москва: Флинта: Наука, 1999. – 515, [1] с; Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013; С.Салижанов. Силлабическая и акцентная структуры слова в разносистемных языках. Монография. –А.Step by step, 2021, – 113 с. Ҳақимов М.Х., Газиева М. Прагмалингвистика асослари: дарслик. – Фарғона: Classic, 2020 – Б. 91.

Shu bilan birga turkologiyada ham qator ilmiy ishlar koʻzga tashlanadi. Jumladan, gapning kommunikativ tiplari intonatsiyasiga bagʻishlangan A.U.Turkbenbayev, Sh.K.Kaliyev, I.E.Alekseyev, S.Kurenov, A.Nurmuxamedov, A.Sapayev, O.D.Roziyeva, I.Chanakov, J.Duyishev⁴ kabi olimlarning ishlarini koʻrsatish mumkin. Oʻzbek tilshunosligida ham intonatsiya masalalarini fonetik eksperimentlar orqali oʻrganish A.Mahmudov, D.Niyozov, H.Yoʻldosheva, M.Yusupova, N.Hayitmetov, M.Mirtojiev, S.Solijonov, M.Hakimov va M.Gaziyeva⁵ larning ilmiy faoliyatida koʻzga tashlanadi. Dunyo tilshunosligida bilingvizm masalalari Boduen de Kurtene, N.S.Trubetskoy, L.V.Shcherba, E.Xaugen, Y.D.Polivanov, U.Vaynrayx, A.E.Karlinskiy, Y.M.Vereshagin, V.Y.Rozensveyg, V.A.Bogorodiskiy, S.I.Bernshteyn, A.A.Reformatskiy, V.A.Avrarin, Y.D.Desheriyev, V.V.Vinogradov, M.K.Isayev, G.N.Lebedeva, N.A.Lyubimova, A.A.Metlyuk kabi olimlarning ilmiy izlanishlari⁶da, oʻzbek

⁴ Туркбенбаев А.У. Интонация простых вопросительных предложений в казахском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма Ата, 1966; Калиев Ж.К. К вопросу об интонации повествовательной фразы в казахском языке. – В кн.: Фонетика казахского языка. Алма-Ата, 1969. – с. 101-107; Алексеев И.Е. Вопросительные предложения в якутском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма Ата, 1983; Куренов С., Нурмухамедов А., Сапаев А. Туркмен дилинде йўнекей хабар ве сораг созлемелеренин интонациясы. – Ашгабат, 1975; Розиева О.Д. Интонация повествовательного предложения в современном туркменском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1975; Дуйишев Ж. Интонация повествовательного предложения в киргизском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1975; Чанаков И. Интонация вопросительного предложения в киргизском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1980.

⁵ Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013; С.Салижанов. Силлабическая и акцентная структуры слова в разносистемных языках. Монография. -А. «Step by step», 2021, 113 стр; Ҳақимов М.Х., Газиёва М. Прагмалингвистика асослари: дарслик. – Фаргона: “Classic”, 2020 – Б. 91;

⁶ Бодуэн де Куртенэ И. А. Избранные труды по общему языкознанию: [в 2 т.] / [вступ. статьи действ.чл. АН СССР В. В. Виноградова, действ. чл. Польской акад. наук В. Дорошевского]; сост.: В. П. Григорьев, А. А. Леонтьев; Акад. наук СССР. Отд-ние литературы и языка. - Москва: Изд-во Акад. наук СССР, 1963. - Т. 1: Избранные труды по общему языкознанию. - 384 с. Щерба, Л. В. О понятии смешения языков // Избранные работы по языкознанию и фонетике / Л. В. Щерба; Ленинград.гос. ун-т им. А.А. Жданова. – Ленинград, 1958. - С. 40-52. Трубецкой, Н. С. Основы фонологии / Н. С. Трубецкой. – Москва: Изд-во иностр. лит. 1960. – 972 с. Хауген, Э. Языковой контакт / Э. Хауген // Новое в лингвистике / сост., ред., вступ. статья и коммент. В. Ю. Розенцвейга. – Москва, 1972.-Вып. 6. -С. 61-81. Ч. 2: Консонантизм. - 1977. - 254 с.: ил. Вайнрайх, У. Одноязычие и многоязычие / У. Вайнрайх // Языковые контакты: [сб. ст.]: [пер. с англ., фр., нем. и итал.] / сост., ред., вступ. статья и коммент. В. Ю. Розенцвейга. – Москва : Прогресс, 1972. - С. 25 - 60. 46. Вайнрайх У. Языковые контакты: состояние и проблемы исследования / У. Вайнрайх; пер. с англ. И коммент. Ю. А. Жлуктенко; вступ. ст. В. Н. Ярцевой. - Киев: В. школа, 1979. - 263 с. Карлинский А. Е. Основы теории взаимодействия языков и проблема интерференции: дис. ... д-ра. филол. наук: 10.02.19 / А. Е. Карлинский. - Алма-Ата, 1980. - 350 с. Верещагин Е. М. Понятие интерференции в лингвистической и психологической литературе. – Москва, 1968. – Вып. 4. - С. 103-110. Розенцвейг В. Ю. Проблемы языковой интерференции: дис. ... д-ра. филол. наук. – Москва, 1975. – 386 с. Реформатский А. А. Обучение произношению, и фонология // Философские науки. – 1959. – № 2. – С. 145-156. Аврорин В.А. Двужычие и школа // Тезисы Научной конференции, посвященной проблемам двужычия и многоязычия. – Москва, 1969. – С. 4-5. Дешериев Ю.Д. Введение. В кн: Развитие национально- русского двужычия. – Москва: Наука, 1976. – 22 с; Бернштейн С. И. Вопросы обучения произношению // Вопросы фонетики и обучения произношению. – Москва, 1975. – С. 17-27. Виноградов В.А. О фонологическом механизме иностранного акцента. – Москва: Высшая школа, 1973. – С. 253-254. Исаев М.К. Акцентуационная интерференция при казахско-английском искусственном двужычии. – Иваново, 1989. - С. 61-64. Лебедева, Г.Н. Восприятие гласных неродного языка (экспериментальнофонетическое исследование на материале английского и русского языков): автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ленинград, 1982. - 16 с. Любимова Н. А. Фонетическая интерференция и общение на неродном языке: Экспериментальное исследование на материале финско-русского двужычия: дис. ... д-ра филол. наук. - Санкт-Петербург, 1991. – 375 с. Метлюк А. А. Взаимодействие просодических систем в речи билингва. – Минск: Вышэйшая школа, 1986. – 110 с. Метлюк А. А. Взаимодействие просодических систем в речи билингва: теоретическое и кспериментально-фонетическое исследование: дис. ... д-ра филол. наук. - Минск, 1989. - 308 с.

tilshunosligida Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, F.Abdullayev, U.Tursunov, V.V.Reshetov, M.M.Mirzayev, K.Yusupov, K.Rahmonberdiyev, N.G‘ulomova, H.G‘ulomov, A.M.Begmatova, M.B.Fayzullayev, M.I.Gadoyeva, M.A.Saliyeva, K.O.Saparova, M.T.Zokirov, Sh.I.Asqarova, S.M.Zokirovalarning tadqiqotlari⁷da fonetik interferensiya masalalari esa N.N.Rogoznaya, Y.V.Naumova, G.M.Vishnevskaya kabi olimlarning ishlari⁸da o‘z aksini topgan.

Bugungi kunga qadar olib borilgan izlanishlarda xorijiy til sifatida ingliz tilidagi intonatsiya muammosi, uning o‘ziga xos qiyosiy-tipologik tadqiqi, bilingvizm va interferensiya hodisalariga hamda bu borada fonetik eksperimentlar o‘tkazishga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Zamonaviy tilshunoslik muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan o‘zbek tili egalari nutqini fonetik-eksperimental jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

intonatsiya va interferensiya hodisalarini jahon, rus, turkologiya hamda o‘zbek tilshunosligida o‘rganilganlik darajasini aniqlash;

ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganishdagi fonetik interferensiya muammolarini ochib berish;

⁷ Аlisher Navoiy. Muhoqamatu-l-lu‘gatain. Asarlar. 14-tom. - Toshkent, 1967. - 156 b; Polivanov E.D. Вокализм говора гор. Самарканда (глава из описания двуязычной системы). – Ленинград: Акад. наук СССР, 1928, №14. – С.306-312; Боровков А.К. По поводу «иранизации» узбекского языка. – Т., 1956, №8; Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? - Т.: Фан, 1972. - 66 б; Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 264 б; Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро шевалари. - Т., Фан, 1969. - 156 б; Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. – Тошкент: Фан, 1974. – 116 б; Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 с; Раҳмонбердиев К. Ўзбек тили контактлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 94 б; Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Тошкент: Фан, 1985. - 112 с.; Бегматова А.М. Сравнительно-типологический анализ причастий русского и узбекского языков: Автореф.дис... канд. филол.наук. – Ташкент, 1999. – 31 с.; Файзуллаев М.Б. Сравнительно-типологические особенности лексико-семантических групп глаголов психического состояния в русском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1994. – 30 с.; Гадоева М.И. Типологическая категория неопределенности и способы её выражения в разносистемных языках (на материале английского и узбекского языков): Ав-тореф.дис. канд. филол.наук. – Ташкент, 1990. – 31 с.; Салиева М.А. Сравнительно-типологи-ческий анализ фонологической структуры слова в английском и узбекском языках: Автореф.дис... канд.филол.наук. – Ташкент, 2002. – 32 с.; Сапарова К.О.Сопоставительно-типо-логическое исследование фоностилисти-ки русского и узбекского языков (на материале фоновариантов слов): Автореф...д-ра филол.наук. – Ташкент, 2009. – 50 с.; Зокиров М.Т. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек – тожик билингвизмида намоён бўлиши. Дис. Ф.ф.н. – Тошкент, 2007. – 148 б.; Асқарова Ш.И. Об особенностях языковой интерференции (на примере изучения немецкого языка по Ферганской области): дис. д-ра философии по фил.наукам (PhD) – Фергана, 2022. – 131 б.; Зокирова С.М. Тиллар тадқиқида контрастив лингвистика илмий парадигмасининг ўрни. Фарғона – 2021.

⁸Наумова Е. В. Просодико-интонационная интерференция в речи билингвов: на материале русского языка и языка суахили: дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2002. – 187 с. ил.; <https://cyberleninka.ru/article/n/intonatsiya-kak-obekt-lingvisticheskoy-interferentsii>; Вишневская Г.М. Интерференция и акцент (на материале интонационных ошибок при изучении неродного языка): Дис. д-ра филол.наук. Спб. 1993. - 481с.

ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilar nutqi borasida qiyosiy-eksperimental tadqiqotlar o'tkazish;

o'zbek tili egalari nutqida bilingvizm va lisoniy interferensiyaning intonatsion hodisalarini tadqiq etish;

o'zbek tili egalarining interferensiya holatlarini fonosintaktik darajada o'rganish.

Tadqiqotning obykti sifatida IPA (Xalqaro fonetik assotsiatsiya) tomonidan tavsiya etilgan Ezopning "Shimol shamoli va quyosh" nomli masalining audioyozuv fayllari olindi.

Tadqiqotning predmeti ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan talabalar va umumiy o'rta ta'lim maktablarining ingliz tili o'qituvchilari nutqidagi intonatsion interferensiyaning eksperimental tadqiqotlar orqali o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda qiyosiy, chog'ishtirma, kuzatish, eksperimental-tajriba metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek-ingliz tillarida gipodifferensiatsiya, giperdifferensiatsiya, fonetik substitutsiya, fonetik reinterpretatsiya hodisalari nutq jarayonida fonetik interferensiya hamda aksentga olib kelishi asoslangan;

turli tizimga oid til egalarining til bilimlari talaffuz jarayonida ohang tebranishiga katta ta'sir ko'rsatishi, matn mazmunini anglagan holatdagina fonetik birliklar – nutq tempi, balandlik, pastlik va boshqa turli emotsional birliklar haqiqiy ma'noda ahamiyat kasb etishi aniqlangan;

ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchi til egalarining o'zga tilni o'rganish va talaffuz qilish ko'nikmalari matn mazmuni tushunmagan holda o'qilganda intonatsion birliklarni noto'g'i qo'llab, faqat, harflarni tanish orqali o'qilganligi fonetik tajribalar asosida dalillangan;

ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchi o'zbek tili egalari nutqida bilingvizm va interferensiya hodisalari fonetik-eksperimental audial yozuvlar asosida isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilishi, xulosalarning qat'iyligi, nutqning fonetik tahliliga eksperimental asosda yondashilganligi, nutqqa oid leksik birliklarni izohlashda sohaga oid lug'atlarga tayanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda intonatsiya, interferensiya va bilingvizm hodisalari sotsiolingvistika, psixolingvistika doirasida tadqiq etilgan bo'lib, u fonetika, nutqiy aktlar nazariyasi, terminologiya bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldiradi va kengaytiradi. Dissertatsiya natijalari o'zbek tilshunosligi fonologiyasining nazariy jihatdan taraqqiy topishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya natijalaridan o'zbek tilshunosligi, psixolingvistika, sotsiolingvistikaga doir tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Intonatsiya, interferensiya, bilingvizm masalalarining tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek-ingliz tillarida gipodifferensiatsiya, giperdifferensiatsiya, fonetik substitutsiya, fonetik reinterpretatsiya hodisalari nutq jarayonida fonetik interferensiya hamda aksentga olib kelishi xususidagi xulosalar hamda tajriba asoslari aks etgan diagrammalar “Belorus Respublikasi Oliy ta’limini modernizatsiya qilish” (Filologiya yo‘nalishi: Informatsion texnologiyalar yordamida talabalarning xorijiy til ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari) mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Belorus davlat texnika universitetining 2022-yil 14-fevraldagi 92-son ma’lumotnomasi). Natijada bilingvizm va sun’iy bilingvizm fenomenlariga doir ilmiy qarashlar hamda mazkur tushunchalarga oydinlik kirituvchi misollar loyihaning amaliy va ilmiy ko‘rsatmalari uchun xizmat qilgan;

ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchi til egalarining o‘zga tilni o‘rganish va talaffuz qilish ko‘nikmalari matn mazmuni tushunmagan holda o‘qilganda intonatsion birliklarni noto‘g‘ri qo‘llab, faqat, harflarni tanish orqali o‘qilganligi fonetik tajribalarga asoslangan xulosa va tavsiyalardan Rossiya Federatsiyasi Perm davlat milliy tadqiqot universitetining “STEAM – metodlari orqali gumanitar (filologiya) fanlari bo‘yicha ta’lim dasturlarini takomillashtirish” mavzusidagi amaliy tadqiqotni bajarishda foydalanilgan (Irkutsk davlat texnika universitetining 2022-yil 10-fevraldagi 618802-EPP-1-2020-1-DE-EPPKA2-CBHE-JP-son ma’lumotnomasi). Natijada to‘plangan audio yozuv fayllari oliy ta’lim muassasalari talabalari nutqidagi intonatsion va fonetik interferensiya hodisalari haqidagi bilimlarni boyitishga, shuningdek, mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari asosida oliy ta’lim muassasalarida ma’ruza hamda seminar mashg‘ulotlarida foydalaniladigan materiallar to‘ldirilib, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi;

turli tizimga oid til egalarining til bilimlari talaffuz jarayonida ohang tebranishiga katta ta’sir ko‘rsatishi, matn mazmunini anglagan holatdagina fonetik birliklar – nutq tempi, balandlik, pastlik va boshqa turli emotsional birliklar haqiqiy ma’noda ahamiyat kasb etishiga doir xulosalaridan Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining “Xayrli kun”, “Adabiy muhit”, “Ma’naviyat sarchashmasi” ko‘rsatuvlari hamda “Yoshlar kundaligi” nomli radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 27-martdagi 01-02/68-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ko‘rsatuv va eshittirishlar ilmiy va amaliy jihatdan boyigan, ijtimoiy xususiyatlari ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 173 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi va ularning ishonchligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati va ularning joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tillar intonatsion tizimining tipologik tavsifi”** deb nomlanib, unda intonatsiyaning fonetika doirasida o‘rganilishi hamda uning boshqa bir qator sohalarning ham obyekti ekanligi, intonatsiyaning tadqiq etilishida integrallik va differentsiallik haqida fikr yuritilgan.

Birinchi bobning birinchi fasli **“Intonatsion birliklar paradigmasi”** deb nomlanadi, unda intonatsion birliklar va ularning nutqdagi o‘rni talqin etilgan. Tilning intonatsion sistemasini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar ichida til sohibining poliglotlik qobiliyati bilan bog‘liq kuzatishlarni maxsus eksperimentlar yordamida olib borish eng optimal tadqiqot usuli sanaladi. Bunday tadqiqotlarning dolzarbligi shundaki, poliglot til sohiblarining yillar davomidagi ona tili bilim va ko‘nikmalari, nutq organlarining ona tili tovush sistemasiga ko‘nikishi, talaffuz jarayonida nutq organlari tarkibiga kiruvchi har bir nutq a‘zosining ona tili tovush tizimiga moslashishi, boshqa yoki chet tillarini o‘rganishga to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Ona tili ko‘nikmalari ikkinchi til tovush sistemasiga, begona til tovushlarining talaffuzi bilan bog‘liq amaliy jarayonlarga, nutq organlarining o‘rganilayotgan til talaffuz jarayoniga to‘la mos kelmaydi. O‘rganilayotgan o‘zga tilning ona tili paradigmasi maqomiga yetguniga qadar artikulyatsion strukturadagi yetakchi til nutq a‘zolarining yangi harakat holatiga yon berishi biroz qiyin kechadi. Bundan tashqari, xalqaro standart bo‘yicha poliglot til sohiblarida ona tili tushunchasi borliqdagi narsa, hodisa va voqealar haqidagi tasavvurlar, assotsiatsiyalar fikrlanayotgan (etalon) tilga nisbatan belgilanadi. Biz nazarda tutgan mazkur dissertatsiya mavzusining mohiyati poliglot bo‘lgan til sohiblarining o‘zbek va ingliz tili bilan bog‘liq intonatsion strukturasi, interferensiya va bilingvizm hodisalari misolida yoritiladi. Mavzuning dolzarbligi ham shu masalalarda o‘z ifodasini topadi.

“Adabiy-badiiy intonatsiyaning til sathlaridagi o‘rni” deb nomlangan birinchi bobning ikkinchi faslida intonatsiya nazariyasi ritorika, notiqlik san‘ati, publitsistik nazariya va sahna nutqi⁹, musiqa hamda lingvistika sohalarining asosiy obyekti ekanligi haqidagi masalalar yoritilgan. Qadimda musiqa intonatsiyasi va nutq intonatsiyasi borasida juda ko‘plab tadqiqotlar amalga

⁹Газиева М. Просодика. – Тошкент: Akademnashr, 2019, 18-бет.

oshirilgan. Bu tadqiqotlarda musiqa va nutq intonatsiyasi yuzasidan umumiy paradigmalari, ikki sohaga taalluqli bo‘lgan intonatsion strukturadagi o‘xshashliklar aniqlangan. Tilshunos olim J.J.Russo esa har bir xalq musiqasi o‘sha xalq tili ohangiga asosan aniqlanadi¹⁰, degan xulosaga kelgan. Antik davr notiqlik san‘ati vakillari ham intonatsiya masalasiga qiziqqanlar. Ular notiqning nutqi barcha uchun tushunarli, aniq, ravon bo‘lishi kerak deb hisoblaganlar. Bundan deyarli ikki ming yil avval Mark Fabiy Kvintilian “... eng asosiy masala notiqning nima haqida gapirayotgani emas, balki qanday gapirayotganligidadir... . Nutq esa aniq, ravon, tushunarli va go‘zal bo‘lishi kerak. Buning uchun notiq grammatika va buyuk shoirlar, yozuvchilarning ijodiy ishlarini o‘rganishi talab etiladi. Intonatsiya muammosi o‘rta asrlarda omma nutqi nazariyotchilarini o‘ziga tortdi. XVII-XIX asrlarda esa teatr san‘ati rivojlandi va intonatsiyaga sahna nutqining asosiy elementi sifatida qaray boshladilar. Rus teatr sahnasi nazariyotchisi K.S.Stanislavskiy fikricha, intonatsiyaning xarakteri, ovozning bo‘yoqdorligi unli va undosh tovushlarni qanday talaffuz qilishga bog‘liq bo‘ladi. “Unlilar – daryo, undoshlar esa qirg‘oqdir”¹¹, deb ta’kidlaydi olim. Uning nazarida undoshlarni bo‘sh, mujmal, noaniq tarzda talaffuz qilish go‘yo qirg‘oqsiz daryoga o‘xshatiladi, undoshlar oqim bo‘ylab botqoqqa quyilib keladi va so‘zlar ana shu botqoqqa tiqilib, cho‘kib ketadi. So‘nggi yillarda xorijiy tilni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj tufayli og‘zaki nutqning roli va ahamiyati sezilarli darajada oshganligini ko‘rish mumkin. Bu esa o‘z navbatida intonatsiya masalasini o‘rganishni kuchaytirmoqda. Chunki chet tilini etalon til (o‘z ona tilidek) o‘zlashtirmoqchi bo‘lgan o‘rganuvchilarga eng katta muammolar aynan fonetika bo‘limida – intonatsiyalarda uchraydi. Tilshunos olim R.Kingdon ta’kidlaganidek, “intonatsiya – tilning yuragidir”¹². Tilshunoslikda intonatsiyani o‘rganishga bo‘lgan qiziqish uzoq yillarga borib taqalsa-da, mazkur hodisa bilan bog‘liq muammolar, yechimini kutayotgan masalalar va to‘ldirilishi lozim bo‘lgan kemptik joylar talaygina.

“Intonatsion birliklar tadqiqi: integrallik va differentsiallik” deb nomlangan uchinchi faslda intonatsion birliklar tadqiqidagi integrallik va differentsiallik hodisasi yoritilgan. So‘nggi yillarda Y.G.Volskaya, N.B.Volskaya, O.F.Knivnova kabi tilshunoslar¹³ nutqning sintagmatik bo‘linishi mezonlarini aniqlashga o‘z diqqatlarini qaratishgan bo‘lsa, S.V.Kodzasov¹⁴ning ilmiy ishlarida intonatsion belgilarni qidirishga bo‘lgan urinishlar ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, intonatsiyaning ma’no farqlash kategoriyasini aniqlashga bo‘lgan qiziqishlar

¹⁰Russo Ж.Ж. Избранные сочинения. т. 1. – М.: Госполитиздат, 1961. – 851 с.

¹¹<https://studfile.net/preview/1101532/page:25/> (murojaat sanasi 24.05.2022)

¹²Kingdon R. The Groundwork of English Intonation. L. Longmans. Green and Co., 1958 -182 p.

¹³Вольская Е.Г. О нетрадиционных способах интонационного оформления синтагм //100 лет экспериментальной фонетике в России. -Спб. 2001. -С.49-53. Вольская Н.Б. Особенности интонации и синтагматического членения вопросительных высказываний разной длины // 100 лет экспериментальной фонетике в России. Спб. 2001. - С.54-57. Кривнова О.Ф. В развитие идей Л.В.Щербы о фонетическом членении речи 100 лет экспериментальной фонетике России: Материалы международной конференции. Спб, 1-4 февраля 2001 г. Спб, 2001. -С.113-116.

¹⁴Кодзасов С.В. Комбинаторная модель фразовой просодии – М., 1996. - С.85-123. Кодзасов С.В. Фонетика интенсификации // 100 лет экспериментальной фонетике России: Материалы международной конференции. Спб, 1-4 февраля 2001 г. Спб, 2001. - С. 105-108.

N.D.Svetozarova¹⁵ va boshqa olimlarning tadqiqotlarida, intonatsiyaning emotiv jihatdan ifodalanishi esa L.A.Piotrovskaya¹⁶ kabi olimlarning izlanishlarida o‘z aksini topgan. Turkologiyada ham intonatsiya masalalariga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar ko‘zga tashlanadi. Bu borada gapning kommunikativ tiplari intonatsiyasiga bag‘ishlangan A.U.Turkenbayev, Sh.K.Kaliyev, I.E.Alekseyev, S.Kurenov, A.Normuhamedov, A.Sapayev, O.D.Roziyeva, I.Chanakov, J.Duyishevning ishlari¹⁷ misol bo‘la oladi. Bundan tashqari intonatsiya masalalarini eksperimental-fonetik asosda tadqiq etish sanoqli bo‘lib, bunday izlanishlar o‘zbek tilshunosligida A.Mahmudov¹⁸, D.Niyozov¹⁹, H.Yo‘ldasheva²⁰, M.Yusupova²¹, N.Hayitmetov²², U.To‘ychiyev²³, M.Mirtojiyev²⁴, S.S.Solijonov²⁵, M.M.Gaziyeva²⁶ kabi olimlarning ilmiy faoliyatida ko‘zga tashlanadi. Bugungi kunda ham mazkur mavzuga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Aynan o‘zbekzabon o‘rganuvchilarning ingliz tili matnlarini talaffuz qilishdagi prosodik muammolariga bag‘ishlangan mazkur tadqiqot ham aynan lisoniy interferensiyaning fonetik darajasidagi masalalarni qamrab olgan. Mazkur muammolar fonetik eksperimental tadqiqotlarga asoslanganligi, ingliz matnlari talaffuzidagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishning amaliy va nazariy masalalari tadqiqiga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchi bob **“Bilingvizm va intonatsion interferensiya”** deb nomlanib, unda bilingvizm va lisoniy interferensiya masalalari, turli tizimga oid intonatsion

¹⁵Светозарова Н.Д. Ответы на анкету "Об основах теории интонации" //Проблемы фонетики. П.-М., 1995. -С.193-196.

¹⁶Пиотровская Л.А. Лингвистическая природа эмотивных высказываний (на материале русского и чешского языков): Автореф. дис. док. филол. наук. – М., 1995.

163. Пиотровская Л.А. Роль интонации в противопоставлении эмотивных и вопросительных высказываний // Язык. Функции. Жизнь. СПб. -М., 2000. -С. 115-124.

¹⁷ Туркбенбаев А.У. Интонация простых вопросительных предложений в казахском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма Ата, 1966; Калиев Ж.К. К вопросу об интонации повествовательной фразы в казахском языке. – В кн.: Фонетика казахского языка. Алма-Ата, 1969. – с. 101-107; Алексеев И.Е. Вопросительные предложения в якутском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма Ата, 1983; Куренов С., Нурмухамедов А., Сапаев А. Туркмен дилинде йўнекей хабар ве сораг созлемелеренин интонациясы. – Ашгабад, 1975; Розиева О.Д. Интонация повествовательного предложения в современном туркменском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1975; Дуйишев Ж. Интонация повествовательного предложения в киргизском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1975; Чанаков И. Интонация вопросительного предложения в киргизском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1980.

¹⁸Махмудов А. Словесное ударение в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1960.

¹⁹Ниязов Д.М. Интонация повествования в современном узбекском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989.

²⁰Юлдашева Х. Интонация вопросительных фраз современного узбекского литературного языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988.

²¹Юсупова М. Ўзбек тилида синтагманинг интонацион хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1979, 1-сон. – Б. 78-82.

²²Ҳайитметов Н. Алишер Навоий ғазалларида мантиқ урғусининг берилиши: Филол.фан.номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 1989.

²³Тўйчиев У. Ўзбек арузини экспериментал фонетика усули билан текшириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1993, 4-сон. – Б. 13-21.

²⁴Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013.

²⁵С.Салижанов. Силлабическая и акцентная структуры слова в разносистемных языках. – Андижан:Step by step, 2021. – 113 с.

²⁶Газиева М. Просодика. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б.65.

qurilmalar, til kontaktida ona tilining va o'zlashtirilgan xorijiy tilga ta'siri hamda sodda va murakkab interferensiya turlari batafsil yoritilgan.

Mazkur bobning **“Bilingvizm lisoniy interferensiya omili sifatida”** nomli birinchi faslida bilingvizmning lisoniy interferensiyaga ta'siri masalalari tadqiq etilgan. Til aloqalari shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda tilshunoslikdagi til kontaktlari, o'zlashmalar, polilingvizm, bilingvizm, interferensiya muammolari va ularning yechimiga qaratilayotgan masalalar alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu muammolarning dolzarbligi, birinchidan, xorijiy tillarni o'rganishga ehtiyojning ortayotganligi bo'lsa, ikkinchidan, xorijiy tillarni o'zlashtirish va ularni mukammal bilish, bu tillarda ona tili ko'nikmalariga ega bo'lgandek muloqotga kirishish bilan bog'liqdir. Turli tizimga oid tillarda muloqot qilish, ikki va undan ortiq tillarda so'zlashish ko'nikmasiga ega bo'lgan til egalari nutqini lingvistik planda o'rganish, ikki va ko'ptillilik sohasidagi muammolarni intonatsion aspektida tadqiq etish har ikki sohadagi hodisalar mohiyatini o'rganishga yo'l ochmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda juda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan “bilingvizm” atamasiga ko'plab ta'riflar berilgan hamda mazkur tushunchaga turlicha yondashilgan. Barcha ta'rif va tavsiflarni, olimlarning qarashlarini ikki qarama-qarshi guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh tarafdorlari bilingvizm ikkinchi yoxud chet tilini o'z ona tili darajasiga yaqinroq darajada bilish, egallash deb talqin qiladilar, ikkinchi guruh vakillari esa ikkinchi tildan foydalanishda sezilarli farq bo'ladi, deb hisoblaydilar. Bilingvizm hodisasi bo'yicha yuqoridagi olimlarning qarashlari o'zaro farqlansa-da, muloqotga kirishish amaliyoti uchun har ikki tilni mukammal bilish talab etilmaydi. Biroq tilshunos sifatida shuni alohida qayd etish kerakki, boshqa sohalarda bo'lgani singari tillarni, jumladan, xorijiy tillarni o'zlashtirishda mukammallikka intilish zarurdir.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **“Intonatsion struktura”** deb nomlanadi. O'zbek va ingliz tili sohibi bo'lgan so'zlashuvchilar muloqotida sintaktik birliklar talaffuzidagi til ko'nikmalarining o'zaro ta'siri keskin ko'zga tashlanadi. Ona tili sohibi nutqida (qaysi til sohibi bo'lishidan qat'i nazar) o'zga tilning grammatik birliklar talaffuzida intonatsion nomuvofiqliklar yuzaga keladi. Buni sintaktik interferensiya deb nomlash mumkin bo'ladi. Ko'rinadiki, ona tili, xorijiy ilmiy paradigmalarda negizida bilingvizmga xos talaffuz me'yorlari bilan bog'liq interferensiyaning fonetik, leksik va grammatik turlarini o'rganish tilning intonatsion muammolariga oid yangi yo'nalishdir. Intonatsiya masalalariga oid tadqiqotlar yo'nalishida asosiy e'tibor ko'p hollarda nutq melodikasi tahliliga qaratiladi. Intonatsiya masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Ularning birinchi guruhida “intonatsiya” termini tor ma'noda tavsiflanadi. Bu guruhdagi ishlarga ko'proq ingliz va amerika tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar mansub bo'lib, ularda asosan melodika tahliliga tortiladi. Ular intonatsiyani asosan melodika kesimida tadqiq qilishgan. Misol uchun, ingliz adabiy tilida ham ikkita asosiy, ya'ni ko'tariluvchi va pasayuvchi melodika hamda ton mavjud. Pasayuvchi ohang fikrning qat'iy tugal ma'no anglatishini ifodalaydi. Ingliz tilidagi buyruq va darak ma'nosidagi gaplar pasayuvchi ohang bilan aytiladi. Aynan shu jihat ingliz tilining xarakteriga xos

deya baholanadi. Masalan: ↗Really? – *Rostdan-a/mi?* Yuqoridagi soʻz tinglovchida soʻzlovchining nutqiga boʻlgan qiziqishni, tinglayotgan paytdagi ikkilanishni, odatiy muloyimlikni bildirsa, ayrim hollarda bu jumla tinglovchi uchun soʻzlovchining nutqi zerikarli emasligini bildiradi, “hayronlik”, baʼzan esa “hayrat” maʼnosini ifodalaydi. “That would be great!” – “*Bu ajoyib boʻlar edi!*” Mazkur jumla esa keng koʻlamdagi hissiyotlarga boy boʻlib, uni zoʻr ishtiyoq, achchiq kinoya, tasalli berish, zerikish kabi mazmundagi ohang bilan aytish mumkin. Bu ohang, albatta, tilning oʻziga xos intonatsion strukturasi va funksional xususiyatlariga bogʻliq ravishda yuzaga chiqadi.

Ikkinchi bobning “**Turli tizimga oid tillarning intonatsion qurilmalari**” deb nomlangan uchinchi faslida turli tizimga oid tillarning intonatsion qurilmalari va modellari talqin etilgan. Har bir tilning oʻziga xos intonatsiyasi mavjud va ular oʻzaro farqlanadi. Ohang kishiga tinglayotgan qoʻshiqni anglashga yordam bergani kabi intonatsiya ham xorijiy tilda aytilgan axborot mazmunini anglashga xizmat qiladi. Qoʻshiqda ohang oʻzgarsa, uni tushunish qiyinlashadi. Shuning uchun ham ona tilidagi intonatsion koʻnikmani ingliz tilida muloqot qilish davomida mazkur xorijiy tilga qoʻllash vaqtida tinglovchi uchun muayyan qiyinchiliklar tugʻiladi. Buning sababalaridan biri intonatsiya til egasi tomonidan tovushlarga qaraganda bilmasdan yaʼni qoidalarga asoslanmay qoʻllaniladi. Shuning uchun ham ingliz tilini xorijiy til sifatida oʻrgangan oʻzbek tili sohibi nutqida prosodik interferensiya intonatsiya yoki melodika nazariyasi, ayni paytda ingliz tili melodik tarkibi amaliyoti koʻnikmasi yoʻqligi uchun prosodik-intonatsion interferensiya yuzaga keladi. Bu fikrlar tilning prosodik sistemasida sintaktik fonetika muhim oʻrin tutishidan dalolat beradi. J.OʻKonnor va G.Arnold kabi tilshunoslar ingliz adabiy tili intonatsiyasi tarkibiga kiruvchi asosiy ton harakatini olti xil modelda tasniflaydi. Tilshunos olim Y.A.Brizgunova rus tili intonatsiyasi borasida oʻzining yagona tasnifini ishlab chiqqan boʻlib (rus tilshunosligida bu termin «ИНТОНАЦИОННАЯ КОНСТРУКЦИЯ»²⁷ deb yuritiladi), uning tasnifi oʻzining sodda, aniq, ravshan, ishonchli misollar bilan dalillanganligi hamda yuqori nazariy asosga ega ekanligi bilan ahamiyatga molikdir. Bir necha til sohibi boʻlishga intiladigan har bir til vakili xorijiy tillarni oʻrganish davomida koʻplab muammolarga duch keladi. Bu muammolardan birinchisi til vakilining turli sistemaga mansub boʻlgan xorijiy tilga duch kelishidir. Ikki va undan ortiq til sohibining talaffuzida ikki til nutq aʼzolarining artikulyatsiyasi oʻzaro bir-biriga taʼsir koʻrsatadi, natijada fonetik, leksik-semantik va grammatik interferensiya yuz beradi. Bularning barchasida lisoniy birliklar intonatsiyasi muhim oʻrin tutadi.

Ikkinchi bobning “**Interferensiya, til kontakti va ilmiy definitiv paradigma**” nomli toʻrtinchi faslida til kontaktlari nazariyasining asosiy kategoriyalari hisoblanadigan “interferensiya”, “bilingvizm” va “polilingvizm” hodisalari va ularni yuzaga keltiruvchi omillar tahlil etilgan. Til sohiblarining oʻz ona tili elementlarini oʻzlashtirgan xorijiy til elementlariga beixtiyor qoʻllab yuborish jarayoni psixolingvistika doirasida ham oʻrganiladi. Mazkur til elementlari hamda ularning talaffuz koʻnikmalari bilan bogʻliq artikulyatsion

²⁷Брызгунова Е.А. Звуки и интонация русской речи. – Москва: Рус. яз., 1981. – 279 с.

strukturani oʻzga tilga koʻchishi jarayonida kommunikantlarning talaffuz psixikasi sohaning tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Bunda talaffuz qilinayotgan tovushlarning ona tili koʻnikmalari ruhiyati bilan ifodalanishi, lisoniy birliklar talaffuzida har ikki tildagi birliklarning psixologik xususiyatlari psixolingvistikaning mundariyasi hisoblanadi. Tilshunoslikda esa interferensiya muammosiga til kontaktlari nuqtayi nazaridan qaraladi. Interferensiya mohiyati bilingv (ikki til sohiblari) tomonidan amalga oshirilayotgan tillar kontakti jarayonida namoyon boʻladi, bunda interferensiya hodisasi muayyan til normalarining buzilishi, konkret til normasini bilmaslik, notanish til talaffuz qoidalarining buzilishi hisobiga sodir boʻladi. Shuningdek, L.V.Shcherba, Y.M.Vereshchagin, V.Y.Rozensveyg, A.A.Reformatskiy, V.A.Avrarin, Y.D.Desheriyev, V.A.Vinogradov, V.V.Alimov, M.T.Zokirov, Sh.I.Asqarova, S.M.Zokirovalarning mazkur tushunchaga doir ilmiy izlanishlari va tadqiqotlarining tahlili natijasida interferensiya hodisasi yuzaga kelishi uchun, albatta, ikkitalilik va til kontakti sharoiti zarur degan xulosaga kelish mumkin. Lingvistik interferensiya markazida turgan inson esa chet tilida ogʻzaki yoki yozma nutq orqali muloqotga kirishganda yoxud bir tildan boshqa tilga tarjima qilish vaziyatida u bir til sistemasining elementlarini, tushunchalarini va funksiyalarini boshqa bir til sistemasining elementlari, tushunchalari va funksiyalari bilan qoʻshimcha tarzda toʻldirishga harakat qiladi va natijada mazkur holat koʻplab xatoliklar, til meʼyorlarining buzilishini keltirib chiqaradi. Umuman olganda, interferensiya va unga berilgan taʼriflardan koʻrinadiki, bu hodisa til va nutq tizimidagi meʼyorlarning buzilishi va koʻpincha tillarning sofligiga salbiy taʼsir etuvchi hodisa sifatida baholanadi.

Ikkinchi bobning “**Intralingvistik va ekstralingvistik interferensiya**” nomli beshinchi faslida interferensiyaning tillararo va bir til doirasida oʻrganilishi masalalari yoritilgan. Oʻzbek tili sohibi nutqida qoʻllanayotgan ingliz tili tovushlari talaffuzining oʻzgarishi bu tilning fonetik tizimiga taʼsir koʻrsatadi, bu esa soʻz lugʻaviy maʼnosining oʻzgarishiga yana ham aniqrogʻi soʻz grammatik maʼnosining oʻzgarishiga olib keladi. Masalan, ingliz tilida *thing* soʻzi *narsa*, *buyum* maʼnosini anglatadi va ot soʻz turkumiga mansubdir. Mazkur soʻzni ona tili koʻnikmalari asosida *sing* tarzida notoʻgʻri talaffuz qilish natijasida bu soʻz *kuylamoq* maʼnosini anglatadi va u feʼl soʻz turkumidagi soʻzga aylanadi. Tilshunos S.A.Abdigaliyev²⁸ interferensiya turlarini zaif, oʻrtacha va kuchli interferensiya deb uch turga ajratadi. Rus tilshunos olimlari²⁹ esa interferensiyaning kommunikativ jihatdan taʼsir etish mezoniga koʻra kommunikativ-relevant (kommunikativ jihatdan ahamiyatli) va kommunikativ – norelevant (kommunikativ jihatdan ahamiyatsiz) interferensiya turlarini farqalaydilar. Biz esa oʻz

²⁸ Абдыгалиев С.А. Пути преодоления лексической интерференции при обучении немецкому языку: автореф. ... дис. канд. филол. наук. – Москва, 1975. – 17 с.

²⁹ Метлюк А.А. Взаимодействие просодических систем в речи билингва. – Минск: Высшая школа, 1986. – 110 с.; Вольская Н.Б. Релевантные признаки интонационной интерференции: экспериментально-фонетическое исследование на материале акцентирования ошибок русских студентов в английской речи: дис. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1985. – 193 с.; Вишневская Г.М. Интерференция и акцент: (на материале интонационных ошибок при изучении неродного языка): дис. ... д-ра филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993. – 373 с

tadqiqotimizda ikki til sohibi bo'lgan bilingv nutqini o'zlashtirgan xorijiy til egasi tomonidan uning nutqini tushunish va uni anglash darajasiga ko'ra sodda va murakkab interferensiya turlariga ajratdik.

Intonatsion interferensiya turli tillar doirasiga mansub tillarning og'zaki muloqot jarayonida kuzatiladigan talaffuz ko'nikmalarining ikkinchi tilga ta'sirini anglatadi. Bu belgi tillarning fonetik tabiati bilan bog'liq bo'lib, so'zlashuvchilarning tabiiy va ijtimoiy belgilariga chambarchas bog'liqdir. Intonatsion interferensiya tillarning o'zaro qarindoshlik yoki noqarindoshlik belgisiga aloqador bo'ladi. Qarindosh tillar o'rtasida muayyan o'xshashliklar mavjud bo'lib, turli tizimli tillarda bu farq sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Intonatsion interferensiya muloqotda o'ta muhim bo'lishi bilan birga nutqiy jarayonda eng sekin o'zgaruvchan xususiyat sanaladi. Aynan uning o'zgaruvchanligi oliy nerv sistemasi harakatlari bilan bog'liq bo'lib, u so'zlovchi nutqidagi aktsentologik belgilarni ifoda etadi. Intonatsion interferensiyaning yuzaga chiqish omillari globallashuv jarayonining jadallashuvi natijasida kamayib boradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**O'zbek va ingliz artikulyatsion bazasining o'zaro ta'siri**" deb nomlanadi. Unda segment birliklarning tipologik xususiyatlari, aksentning interferensiya hosilasi sifatida namoyon bo'lishi hamda fonetik-eksperimentga asoslangan fonosintaktik interferensiya masalalari tadqiq etilgan.

Uchinchi bobining "**Segment birliklarning tipologik xususiyatlari**" nomli birinchi faslida tovushlar artikulyatsiyasiga oid masalalar o'rganiladi. Tovushlar artikulyatsiyasiga oid qoidalarni bilmaslik, fonematik tinglash va tushunishdagi xatoliklar, talaffuz ko'nikmalarining yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi ingliz tili tovushlarining noto'g'ri talaffuz qilinishiga olib keladi. Talaffuzda eng ko'p ko'zga tashlanadigan xatoliklar va qiyinchiliklar bu o'zbek tili fonetikasida o'z analogiga ega bo'lmagan ingliz tilidagi tovushlar va harf birikmalarini talaffuz qilish hodisasidir.

Tilshunos Y.A.Tregubova³⁰ fonetik interferensiyaning *gipodifferensiya*, *giperdifferensiya*, *fonetik substitutsiya* va *reinterpretatsiya* kabi to'rt turini farqlaydi. O'zbek tili sohiblarining ingliz tilidagi og'zaki nutqni o'rganish jarayonida *gipodifferensiya* (terminning o'zagi bo'lgan differensiya so'zi lot.differentia³¹ – "farq", rus tilida "недодифференциация" farqlay olmaslik) hodisasi, ya'ni ayrim ingliz va o'zbek fonemalarini bir-biridan farqlay olmaslik holatlarini uchratish mumkin. Masalan: weather - ['weðə] so'zidagi [w] tovushi o'rniga [v] yoki very - ['veri] so'zidagi [v] tovushi o'rniga [w] tovushini talaffuz etish yuqoridagi fikrimizga isbot bo'la oladi. *Fonetik substitutsiya* (tilshunoslikda bir tovushni boshqa bir tovush bilan o'rin almashish hodisasi)³² – bu talaffuz

³⁰ Трегубова Ю.А. Интерференция согласных фонем в английской речи русских билингвов (на материале устной английской речи русских учащихся) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2017. №5-2 (71). УРЛ: <https://cyberleninka.ru/article/n/interferentsiya-soglasnyh-fonem-v-angliyskoy-rechi-russkih-bilingvov-na-materiale-ustnoy-angliyskoy-rechi-russkih-uchaschihsya> (дата обращения: 22.07.2022).

³¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/\(murojaat_sanasi_04.08.2022\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/(murojaat_sanasi_04.08.2022))

³² [https://ru.wiktionary.org/wiki/субституция_\(murojaat_sanasi_04.08.2022\)](https://ru.wiktionary.org/wiki/субституция_(murojaat_sanasi_04.08.2022))

qilinishi kerak bo'lmagan fonemalarni talaffuz qilish hisoblanadi. Masalan, *heir, heiress, hour* soʻzlarida [h]; *know, knock* soʻzlarida [k]; *island, islander, islet* va *isle* soʻzlarida [s] tovushlarining talaffuz qilinishi. **Giperdifferensiya** (terminning oʻzagi boʻlgan differensiya soʻzi lot.differentia³³ – “farq”, rus tilida “сверхдифференциация”) hodisasiga soʻz oxirida uchraydigan –d undosh tovushining jarangsizlanishini misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *bad, spend, and* soʻzlarining *bat, spent, ant* kabi talaffuz qilinishi maʼno oʻzgarishiga olib keladi. **Fonetik reinterpretatsiya** (dastlab talqin qilingan axborotning mazmun-mohiyatini yoki maʼnosini aniqlashtirish, oʻzgartirish)³⁴ ingliz fonemasini ikki mustaqil tovushga ajratish holatlarida kuzatiladi. Masalan, **th** harf birikmasini [ð] yoki [θ] sifatida emas, balki [th] deb talaffuz qilish.

Oʻzbek tili sohiblarining ingliz tilidagi nutqida uchraydigan fonetik interferension xatoliklar (unli tovushlar misolida)ni quyidagi misollarda koʻrib chiqamiz:

Ingliz adabiy tilidagi qisqa va choʻziq **i** allofonlari oʻzbek tili sohiblari nutqida koʻproq interferensiyaga uchraydigan tovushlar qatoriga kiradi. Misol uchun **i** unli tovushi **beet** - “lavlagi” [bi:t] deb talaffuz qilinadi. Talaffuz qilish jarayonida [i:] transkripsiyasida berilgani kabi choʻziq talaffuz qilinmasa yoki qisqa talaffuz qilinsa, mazkur soʻz maʼnosi butunlay oʻzgaradi va **bit** – “boʻlak” [bit] soʻziga aylanib qoladi. Shuningdek, *sheep* [ʃi:p] – “qoʻy” – *ship* [ʃip] – “kema”; *meed* [mi:d] – “maqtov” – *mid* [mid] “oʻrta” yuqoridagi fikrlarimizga misol boʻla oladi.

Mazkur misollarda [i] unli tovushi oʻzining qisqa yoki choʻziqligiga koʻra maʼno farqlash xususiyatiga ega boʻldi. Bundan tashqari maʼnosi oʻzgargan soʻzlar bir soʻz turkumiga, yaʼni ot soʻz turkumiga mansub boʻldi. Quyida tahlilga tortiladigan soʻzlardagi [i] unli tovushi soʻzlardagi maʼnoni farqlashdan tashqari, soʻzlarni bir soʻz turkumidan boshqa bir soʻz turkumiga oʻtishi uchun xizmat qiladi. Masalan: **lead** - [li:d] – *yetaklab bormoq, boshqarmoq* (feʼl soʻz turkumi), **lid** - [lid] – *qopqoq* (ot soʻz turkumi), **steal** -[sti:l] – *oʻgʻirlamoq* (feʼl soʻz turkumi), **still** - [stil] – *kadr, surat* (ot soʻz turkumi), *ohista, osuda* (sifat soʻz turkumi) *hali ham, hamon, hanuz* (ravish soʻz turkumi)

Shuningdek, ingliz tilidagi [ɔ] - [ɔ:] va [ʌ] – [a:] kabi qisqa hamda choʻziq tovushlarini farqlamaslik holatlari oʻzbek tili sohiblarining ingliz tilidagi nutqida maʼlum bir xatoliklarga olib keladi. Masalan, *shot* [ʃɔt] – (*oʻq uzish, otish; surat, kadr*) soʻzidagi [ɔ] tovushi choʻziq [ɔ:] deb talaffuz qilinsa *short* [ʃɔ:t] (*qisqa; pakana, past boʻyli*); *sought* [ʃɔ:t] (*qidirmoq* (oʻtgan zamon) soʻzidagi [ɔ] tovushi choʻziq [ɔ:] deb talaffuz qilinsa *sot* [ʃɔ:t] (*spirtli ichimliklarni muntazam isteʼmol qiluvchi shaxs*) soʻziga aylanib qoladi. Shuningdek, *corn* [kɔ:n] – *urugʻ* soʻzidagi [ɔ:] choʻziq fonema qisqa [ɔ] deb talaffuz qilinsa, *con* [kɔn] *firibgar, qallob* soʻziga, *cud* [kʌd] saqich soʻzidagi qisqa talaffuz qilinishi kerak boʻlgan [ʌ] fonemasi choʻziq [ɑ:] deb talaffuz qilinsa, *card* [kɑ:d] *karta, otkritka* soʻziga, *hut*

³³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/> (murojaat sanasi 04.08.2022)

³⁴ <https://ru.wiktionary.org/wiki/> реинтерпретация (murojaat sanasi 04.08.2022)

[hʌt] *kulba* soʻzidagi qisqa talaffuz qilinishi kerak boʻlgan [ʌ] fonemasi choʻziq [ɑ:] deb talaffuz qilinsa *heart* [ha:t] *yurak* soʻziga aylanib qoladi.

Yuqorida ingliz tili unli fonemalari qisqa va choʻziqligiga koʻra maʼno farqlash xususiyatiga ega ekanligi, shuningdek, ona tili fonetik sathida oʻxshash boʻlgan unli tovushlar talaffuzi aynan fonetik interferensiyaga eng koʻp uchraydigan tovushlar ekanligini bilish mumkin. Ingliz tilidagi quyidagi unli tovushlar lakunar unlilar [a:] [u:] [ə:] [æ] [ei] [ai] [ɔi] [ai] [iə] [iə] [eə] [ɔə] hisoblanadi. Ingliz tilida muloqot qiladigan oʻzbek tili egalari koʻp hollarda ingliz tili diftonglarini alohida fonemalardan iborat deb hisoblaydilar va oʻz nutqlarida ularni ajratib alohida fonema sifatida talaffuz qiladilar. Shu bilan birga oʻzbek tilidagi [oʻ] hamda rus tilidagi [ы] fonemalari ingliz adabiy tili uchun lakunar tovush hisoblanadi. Bundan tashqari ingliz tilidagi [ʃ], [dʒ], [tʃ], [j], [r] tovushlarni talaffuz qilishda ham maʼlum bir qiyinchiliklar koʻzga tashlanadi. Oʻzaro kontaktga kirishuvchi tillarning turli til tizimlariga mansub ekanligi, turli xildagi tovush tarkibiga ega boʻlishi, fonemalarning talaffuz etilishidagi oʻrni va ularning oʻzaro mutanosibliigi hamda intonimlashishdagi xilma-xillikda yaqqol koʻzga tashlanadi.

Uchinchi bobning **“Leksik interferensiyaning intonatsion jihatlari”** nomli ikkinchi faslida fonetik interferensiya natijasida yuzaga chiqadigan nutqdagi intonatsion xatoliklari yoritilgan. Tilshunoslar X.E.Palmer, V.Kuk, A.A.Martinken, G.M.Vishnevskaya³⁵ lar, oʻzga tildagi aksent koʻp hollarda aynan intonatsiyada koʻzga tashlanishini aytib oʻtadilar. Koʻplab ingliz millati vakillari xorijliklar nutqidagi grammatik xatolikni kechiradilar. Sababi mazkur xatolik soʻzlovchining nutqi notoʻgʻri talqin qilinishiga olib kelmaydi. Biroq intonatsiyadagi xatolik madaniyatlar oʻrtasidagi muloqot jarayonining buzilishiga taʼsir etishi mumkin deb hisoblab, bu xatoni jiddiy qabul qiladilar. Nutqqa “intonatsion libos” kiydirilmas ekan, ingliz millati vakili soʻzlovchi xorijlik ekanligini osongina tushunib oladi. Biz ushbu tadqiqotimizda ingliz tilidagi segmental va supersegmental birliklarning juda ham koʻp qismini qamrab olgan IPA (Xalqaro fonetik assotsiatsiya) tomonidan tavsiya etilgan Ezopning “The North Wind and the Sun” (Shimol shamoli va quyosh) nomli masalining audioyozuv fayllardan foydalandik. Mazkur masal 144 boʻgʻin, 113 soʻz, 8 bosh va 5 ergashgan gaplardan, 5 mustaqil gaplardan, 3 satrdan hamda ingliz tilidagi jami 44 fonemalardan iborat. Ushbu masal 169 nafar (69 nafar erkak va 100 nafar ayol kishilar) respondent tomonidan oʻqilgan. Respondentlar 20-35 yosh atrofidagi, ingliz tilini xorijiy til sifatida kamida oʻn yildan buyon oʻrganib kelayotgan talabalar va oʻrta taʼlim maktablarining ingliz tili oʻqituvchilari nutqini B2 daraja xalqaro baholash mezonini boʻyicha tahlilga tortilgan. Tilshunos olim N.A.Lyubimova fonetik interferensiya “birinchi navbatda soʻzlovchining ongida fonetik tizimlar va talaffuz

³⁵ Palmer H. E. *English Intonation with Systematic Exercises*. – Cambridge: Heffer, 1924. – 105 p.; Cook V. *Active Intonation*. – London: Longmans, 1968. – 99 p.; Мартинкенас А.А. Сравнительный анализ эффективности использования визуальных опор в процессе обучения иноязычной интонации (немецкий язык, языковой вуз): Автореф. дис. . канд. филол. наук. – М., 1988. – 23 с.; Вишневецкая Г. М. Интерференция и акцент: (на материале интонационных ошибок при изучении неродного языка) : дис. ... д-ра филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993. – 373 с.

me'yorlarining o'zaro ta'siri natijasida ikkinchi til tizimi va uning me'yorlarini buzish orqali namoyon bo'ladi", deb ta'kidlaydi³⁶. Olimaning bu ta'rifi interferensiya hodisasiga psixolingvistik jihatdan yondashishni taqozo etadi. Bilingv nutqidagi fonetik interferensiya tilning tovush sistemasidagi barcha birliklarni: *tovush, so'z, takt, fraza, matnga* ta'sir etadi va "salbiy til materialini"ni hosil qiladi. Bu esa, o'z navbatida, til egasi tomonidan fikrni tushunishiga to'sqinlik qiladi va natijada muloqotni anglash darajasi pasayib ketadi. Shu bois xorijiy tilni o'zlashtirayotgan til egasi mazkur tilning fonetik qoidalarini to'liq o'zlashtirishi, tovushlar artikulyatsiyasi va akustikasiga e'tibor berishi talab etiladi.

Bobning "**Aksent interferensiya hosilasi sifatida**" deb atalgan uchinchi faslida dominant tilning o'zlashtirilayotgan xorijiy tilga ta'siri natijasida yuzaga keladigan aksent hodisasi haqida fikr yuritilgan. Til kontaktlari sharoitida bilingv nutqida paydo bo'ladigan aksent ko'proq fonetik sathda namoyon bo'ladi. Bunday muammolar A.A.Metlyuk, G.M.Vishnevskaya, M.K.Isaev³⁷ kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Mashhur tilshunos olim U.Vaynrayx izlanishlarida interferensiyani ikkinchi til qoidalaridagi buzilish hodisasi deb ta'riflaydi. Olimlar U.Vaynrayx, M.M.Galeeva, A.I.Rabinovich ham interferensiyani "prosodik, fonetik va artikulyatsion tizimlarni qamrab oluvchi tilni fonetik me'yorlarining buzilishidir", deb izohlaydilar. Bizning fikrimizcha ham, interferensiya hodisasi aksent kabi bilingv nutqining buzilishi va til kontaktiga salbiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Aynan til muhitiga yoshlikdan ega bo'lmagan kishilarda keyinchalik talaffuz bilan bog'liq muammolar vujudga keladi. Bu tilshunoslikda "aksent" deb nomlanadi. O'zbek so'zlovchilari nutqida ona tili tovushlari faolligi va aniqligi sababli ingliz tilidagi murakkab tovushlar – diftonglar, triftonglar, yozilsa-da, o'qilmaydigan tovushlar talaffuzida aksent hodisasi kuzatiladi. Bunday hodisani aniqlash uchun ingliz adabiy tilining namunasi sifatida e'tirof etilgan Ezopning "The North Wind and the Sun" (Shimol shamoli va quyosh) masali va uning tarkibidagi jumalarning ingliz adabiy tili sohiblari hamda o'zbek so'zlovchilari nutqidagi talaffuzi va uning audial varianti asosida eksperimentlar o'tkazildi.

Uchinchi bobning to'rtinchi "**Sintaktik interferensiya**" deb nomlangan faslida o'zbek respondentlari nutqidagi fonetik interferensiya fonetik-eksperimental tadqiqotlar asosida tahlilga tortilgan. Fonetik sathga oid birliklar sintaktik sath uchun ham asos bo'lib xizmat qilishi fonetik-eksperimental tadqiqotlarimizda quyidagicha namoyon bo'ldi. Jumladan:

Declarative (darak gap) birliklarning funksional-sintaktik differentsiatsiyasi.

"It was a fine but very cold winter's day as the Sun shone down on the snow-covered earth below"

³⁶ Любимова Н. А. Фонетическая интерференция и общение на неродном языке: Экспериментальное исследование на материале финско-русского двуязычия: дис. ... д-ра филол. наук. – Санкт-Петербург, 1991. - 375 с.

³⁷ Метлюк А.А. Просодия белорусского языка в условиях двуязычия. – Минск, 1982. - 106 с.; Вишневская Г.М. Лингвистические предпосылки возникновения русского акцента в английской интонации // Фонетическая интерференция. Иван. гос. ун-т. Иваново, 1985. - С. 38 - 50.; Исаев М.К. Фонетическая интерференция при казахско-английском искусственном двуязычии. – Алма-Ата, 1986. – 121 с.

(Qishning ajib, biroq sovuq kuni edi. Quyosh qor bilan to'shalgan yerga qarab nur sochardi)

“It was a fine but very cold winter’s day as the Sun shone down on the snow-covered earth below” jumlasida (1-rasm. **Kate Stonham**) jumla ingliz respondent tomonidan quyidagi ko‘rsatkichlar bilan talaffuz qilingan. 293 gers melodik cho‘qqi “fine” bo‘lagiga tushgan. Ifodada mantiqiy urg‘u ham “fine” bo‘lagiga tushgan bo‘lib, 82.9 db urg‘u olgan (1-diagramma). Ifoda talaffuzi uchun 6389 msek vaqt sarflangan (2-diagramma). Mantiqiy urg‘u tushgan “fine” bo‘lagi uchun 671 msek vaqt sarflangan bo‘lsa (3-diagramma), undagi tovushlarning o‘rta arifmetik qiymati uchun 134.2 msek vaqt sarflangan. Rasmda intonatsiyaning komponentlari ossillogramma, formant, melodik va intensiv harakatlar, pauza va tempni qamrab oluvchi temporal komponentlar aks etgan. Intonatsiya komponentlarining akustik parametrlari ko‘rsatilgan. Rasmdagi jumlaning eksperimental-fonetik kuzatuv natijasiga ko‘ra ilmiy xulosalash mumkin.

Yuqoridagi jumla o‘zbek talabasi tomonidan esa quyidagi ko‘rsatkichlar bilan talaffuz qilingan. ***“It was a fine but very cold winter’s day as the Sun shone down on the snow-covered earth below”*** (2-rasm. **Akmaljonova Ruxshona**) 500 gers melodik cho‘qqi “was” bo‘lagiga tushgan bo‘lib, 75.36 db. urg‘u olgan (4-diagramma). Ifoda talaffuzi uchun 6747 msek vaqt sarflangan (5-diagramma). “was” 671 msek. vaqt sarflangan bo‘lsa, (6-diagramma), undagi tovushlarning o‘rta arifmetik qiymati uchun 134.2 msek. vaqt sarflangan. Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tili sohibi bo‘lgan respondent mazkur jumlaning sezilarli darajadagi farq bilan talaffuz qilgan. Bu farqlanishlarni esa fonetik eksperiment uchun tanlab olingan manbadagi jumla talaffuzi natijalarini o‘zaro qiyoslash orqali ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, ***“It was a fine but very cold winter’s day as the Sun shone down on the snow-covered earth below”*** ifodasini talaffuz qilgan ingliz tili sohibi nutqida mantiqiy urg‘u ***“fine”*** bo‘lagiga tushgan bo‘lsa, o‘zbek tili sohibi esa o‘z nutqida mantiqiy urg‘uni ***“was”*** bo‘lagiga tushirgan. Muallif mazkur gapda *qor bilan qoplangan, qahraton qish sovug‘i* hukm surayotgan paytni tasvirlashda *quyosh charaqlab turgan ochiq (fine) havoga* urg‘u bermoqchi ekanligini hisobga olsak, o‘zbek respondent tomonidan esa gapdagi ***“was”*** bo‘lagiga urg‘u bergan. Buning sababi esa ingliz tilidagi fe’llarning tuslanish hodisasi bo‘lib, o‘zbek respondent tomonidan tuslanishidagi ***“was”*** yordamchi fe’liga urg‘u berish orqali grammatik xatolikka yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shu so‘zga urg‘u bergan. Ingliz tili sohibi bo‘lgan respondent uchun mazkur hodisa, ya’ni fe’llarning tuslanishi odatiy ko‘nikmaga aylangani sababli u ifodaning ***“fine”*** bo‘lagiga urg‘u bergan.

Xuddi shu jumla yana bir o‘zbek talabasi tomonidan quyidagi ko‘rsatkichlar bilan talaffuz qilingan. ***“It was a fine but very cold winter’s day as the Sun shone down on the snow-covered earth below”*** (3-rasm. **Qodirov Murodil**) 111.8 gerts melodik cho‘qqi ***“snow-covered”*** bo‘lagiga tushgan bo‘lib, 66.93 db. urg‘u olgan (7-diagramma). Ifoda talaffuzi uchun 9189 msek. vaqt sarflangan (8-diagramma), ***“snow-covered”*** 671 msek vaqt sarflangan bo‘lsa (9-diagramma), undagi tovushlarning o‘rta arifmetik qiymati uchun 131.27 msek. vaqt sarflangan. ***“Was”*** va ***“snow-covered”*** so‘zlarida pauzalar mavjud bo‘lib, respondent

“*snow-covered*” so‘zi chiziqcha bilan yozilganiga pauza bilan o‘qigan deyish mumkin. *Covered* so‘zi [‘kʌvəd] deb talaffuz qilinishi kerak. O‘zbek respondentlari esa mazkur so‘zdagi [o] fonemasini qanday yozilgan bo‘lsa, xuddi shunday talaffuz qilgan.

Interrogative (so‘roq gap) birliklarning funksional-sintaktik differentsiatsiyalanishi

“*Why do you have to cause misery and chaos all the time?*”

(*Nega sen doim falokat va tartibsizliklar sababchisi bo‘lishing kerak?*)

“*Why do you have to cause misery and chaos all the time?*” (4-rasm. Kate Stonham) so‘roq gapining talaffuzida ingliz tili sohibi 298 gers melodik cho‘qqi “*Why*” bo‘lagiga tushgan. Ifodada mantiqiy urg‘u ham “*Why*” bo‘lagiga tushgan bo‘lib, 71.25 db urg‘u olgan (10-diagramma). Ifoda talaffuzi uchun 3.711 msek vaqt sarflangan (11-diagramma). Mantiqiy urg‘u tushgan “*Why*” bo‘lagi uchun 0.086 msek vaqt sarflangan bo‘lsa (12-diagramma), undagi tovushlarning o‘rta arifmetik qiymati uchun 0.086 msek vaqt sarflangan. Gap mazmuniga ko‘ra maxsus so‘roq gap bo‘lgani uchun mantiqiy urg‘u “*Why*” so‘roq olmoshiga tushgan va shunga mos tarzda jumla yakunida esa ohang pasaygan.

“*Why do you have to cause misery and chaos all the time?*” (5-rasm. Akmaljonova Ruxshona) so‘roq gapining talaffuzida o‘zbek tili sohibi 394 gers melodik cho‘qqi “*Why*” bo‘lagiga tushgan. Ifodada mantiqiy urg‘u “*do*” bo‘lagiga tushgan bo‘lib, 75.39 db urg‘u olgan (13-diagramma). Ifoda talaffuzi uchun 4000 msek vaqt sarflangan. Mantiqiy urg‘u tushgan “*Why*” bo‘lagi uchun 1.08 msek vaqt sarflangan bo‘lsa (14-diagramma), undagi tovushlarning o‘rta arifmetik qiymati uchun 93.02 msek vaqt sarflangan (15-diagramma). Gap mazmuniga ko‘ra maxsus so‘roq gap bo‘lgani uchun mantiqiy urg‘u “*Why*” so‘roq olmoshiga tushirilishi kerak, biroq o‘zbek respondentlari mantiqiy urg‘uni gapdagi “*do*” so‘ziga qo‘ygan. Ingliz tilidagi maxsus so‘roq gaplarda mantiqiy urg‘u shu gapdagi so‘roq olmoshiga tushirilishidan respondent xabardor emas. Jumla yakunida ohang pasaygan. Matndagi Quyosh va Shamolning dialogidan navbatdagi jumla Quyoshning shamolga qarata **“*Why do you have to cause misery and chaos all the time?*” (Nima uchun doim)** deb Shamolga savol bilan murojaat qilgan Quyoshning gapidagi ohangda respondent chindan ham Quyoshning Shamolga nisbatan murojaati mungli, iltijo ohangida berilgan. Biroq so‘zdagi fonemalar to‘liq ingliz tili fonetik qoidalariga asosan talaffuz qilinmagan. Jumladan, *th* – harf birikmasi o‘zbek tilidagi *z* undoshi kabi, *all* so‘zidagi *l* undoshi yumshoq talaffuz qilingan, *time* so‘zidagi *t* undoshi ham o‘zbek tilidagi *t* undoshi kabi talaffuz qilingan.

“*Why do you have to cause misery and chaos all the time?*” (6-rasm. Qodirov Murodil) so‘roq gapining talaffuzida o‘zbek tili sohibi 80.72 gerts melodik cho‘qqi “*Why*” bo‘lagiga tushgan. Ifodada mantiqiy urg‘u “*Why*” bo‘lagiga tushgan bo‘lib, 66.34 db urg‘u olgan (16-diagramma). Ifoda talaffuzi uchun 5751 msek vaqt sarflangan. Mantiqiy urg‘u tushgan “*Why*” bo‘lagi uchun 0.096 msek vaqt sarflangan bo‘lsa (17-diagramma), undagi tovushlarning o‘rta arifmetik qiymati uchun 133.7 msek vaqt sarflangan (18-diagramma). Gap

mazmuniga ko‘ra maxsus so‘roq gap bo‘lgani uchun mantiqiy urg‘u “*Why*” so‘roq olmoshiga tushirilgan. Ifoda pasayuvchi ohang bilan aytilgan. Jumladagi “*and*” – *va* so‘zidan keyin pauza bor, aslida pauzasiz aytilishi kerak. Balki respondent uchun “*and*” so‘zidan keyingi “*chaos*” so‘zining talaffuz qilish qiyinchilik tug‘dirgan yoki uni qoidaga ko‘ra to‘g‘ri o‘qish o‘ylantirgani sabab “*and*” so‘zidan keyin to‘xtalishga majbur bo‘lgan deyish mumkin. Maxsus so‘roq gaplardagi so‘roq olmoshiga tushirilgan urg‘u to‘g‘ri qo‘yilgan, lekin gap mazmuniga ko‘ra Quyosh va Shamol o‘rtasidagi dialog bo‘lgani, Shamoldan nima sababdan doim chang-to‘zon ko‘tarib hamma joyni ostin-ustun qilib yuborishi so‘rayotgan jumlada umuman emotsional-ekspressiv bo‘yoq yo‘q. Gap oddiy kayfiyatda, past temp va tembrda aytilgan. Jumladagi boshqa so‘zlar ham talaffuz normalariga muvofiqdir.

Imperative (buyruq gap) birliklarning funksional-sintaktik differentsiatsiyalanishi

“Out of my way, Sun”, roared the Wind

(“Yo‘limdan qoch Quyosh”, deb o‘shqirdi Shamol)

Ingliz tili sohibi “***Out of my way, Sun”, roared the Wind*** (7-rasm. **Kate Stonham**) ifodasini quyidagi ko‘rsatkichlar bilan talaffuz qilgan. 193 gerts melodik cho‘qqi “*way*” bo‘lagiga tushgan. Ifodada mantiqiy urg‘u ham “*way*” bo‘lagiga tushgan bo‘lib, 72.67 db urg‘u olgan (20-diagramma). Ifoda talaffuzi uchun 2533 msek vaqt sarflangan. Mantiqiy urg‘u tushgan “*way*” bo‘lagi uchun 671 msek vaqt sarflangan bo‘lsa (21-diagramma), undagi tovushlarning o‘rta arifmetik qiymati uchun 97.42 msek vaqt sarflangan (22-diagramma). “*Yo‘limdan qoch, quyosh*”, -deb o‘shqirdi shamol” jumlasini kuchli intonatsiya bilan, har bir so‘z to‘liq talaffuz va buyruq ohangida, go‘yo o‘zidan ming marotaba kuchsiz raqibga qarata uni mensimaslik ohangida aytilgan. Gap buyruq-istak maylida shakllangan. Gap pasayuvchi ohang bilan aytilgan. “*way*” so‘zidan keyin vergul pauza bor, “*roared*” so‘zidan keyin ham pauza qo‘yilgan.

O‘zbek respondentini esa “***Out of my way, Sun”, roared the Wind*** (8-rasm. **Akmaljonova Ruxshona**) jumlasini quyidagicha talaffuz qilgan. 170 gerts melodik cho‘qqi “*sun*” bo‘lagiga tushgan. Ifodada mantiqiy urg‘u ham “*sun*” bo‘lagiga tushgan bo‘lib, 72.67 db urg‘u olgan (23-diagramma). Ifoda talaffuzi uchun 3457 msek vaqt sarflangan. Mantiqiy urg‘u tushgan “*sun*” bo‘lagi uchun 671 msek vaqt sarflangan bo‘lsa (24-diagramma), undagi tovushlarning o‘rta arifmetik qiymati uchun 132.96 msek vaqt sarflangan (25-diagramma). Jumla talaffuzi uchun ko‘p vaqt sarflangan. Aslida buyruq va istak ma‘nosida aytilishi lozim bo‘lgan jumla yalinib-yolvorish ohangida aytilgan. Gap pasayuvchi ohang bilan aytilgan. Muallif gapidagi buyruq va istak ma‘nosi umuman yo‘q. Mantiqiy urg‘u tushgan “*sun*” bo‘lagi qisqa [sʌn] deb o‘qilishi kerak [sʌ:n] cho‘ziqroq talaffuz qilingan, “*sun*” so‘zidan keyin pauza bor.

Yana bir o‘zbek respondentini talaffuzida “***Out of my way, Sun”, roared the Wind*** (9-rasm. **Qodirov Murodil**) ifodasini 130 gerts melodik cho‘qqi “*my*” bo‘lagiga tushgan. Ifodada mantiqiy urg‘u “*out*” bo‘lagiga tushgan bo‘lib, 65.01 db urg‘u olgan (26-diagramma). Ifoda talaffuzi uchun 3070 msek vaqt sarflangan

(27-diagramma). Mantiqiy urg‘u tushgan “out” bo‘lagi uchun 671 msek vaqt sarflangan bo‘lsa (28-diagramma), undagi tovushlarning o‘rta arifmetik qiymati uchun 118.07 msek vaqt sarflangan. “Sun” va “roared” so‘zlaridan keyin pauza bor. Jumla nihoyatda past ohangda, bir maromda talaffuz qilingan. Ko‘chirma gap va muallif gaplari bir xil intonatsiya bilan aytilgan. Ko‘chirma gapdagi buyruq va istak ma‘nosi umuman yo‘q. Ifoda pasayuvchi ohang bilan aytilgan. Jumla yakunidagi *The wind* so‘zi ingliz respondentni talaffuziga yaqin, o‘xshash aytilgan. Jumladagi boshqa so‘zlar ham talaffuz normalariga muvofiq talaffuz qilingan, biroq nutqqa emotsional-ekspressiv bo‘yoq berilmagan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, talaffuz jarayonida so‘zlovchining til bilimlari ohang tebranishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. So‘zlovchi matn mazmunini anglagan holatdagina fonetik birliklar – nutq tempi, tonning balandligi yoki pastligi, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini differentsiatsiyalaydi. Ayni paytda predikativ birliklarning tarkibida emotsional-ekspressiv strukturani ham shakllantiradi. Tajribalarda kuzatilganidek, ingliz respondentni ohang va pauzalarni matn mazmuni bilan bog‘lagan bo‘lsa, o‘zbek respondentni asosan so‘zni to‘g‘ri o‘qish maqsadida vaqtni noto‘g‘ri sarflagan.

XULOSA

1. Intonatsiya nutqiy jarayonda voqelanishi bilan birgalikda til birligi sifatida ham muayyan belgilarga egaki, ular tilshunoslikda hali to‘liq ilmiy asoslangan emas. Tilshunoslikka oid tushunchalar izohida intonatsiya bilan bog‘liq birliklar yetarlicha qamrab olinmagan. Intonatsiya ilmiy paradigmasiga tegishli sintagma, nutq melodikasi, pauza, ritm, temp, ohang tushunchalarining turli tizimli tillar kesimidagi tadqiqi zamonaviy tilshunoslik rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Tillarning xususiy masalalarini qiyoslash asosida o‘rganish til nazariyasining boyishi uchun xizmat qiladi. Muayyan tillarning eksperimental prosodik tadqiqini amalga oshirish tilshunoslikning yondosh sohalari lingvomadaniyatshunoslik, lingvopoetika, hamda antropotsentrik xarakterdagi turkum yo‘nalishlar (psixolingvistika, etnolingvistika, entalingvistika, areal lingvistika, kognitiv lingvistika) rivojiga hissa qo‘shadi.

3. Har bir tilning muayyan grammatik qoidalari bo‘lgani kabi prosodik talablari mavjud. Prosodika intonatsiyaning nutqiy jarayondagi ifodasi bilan bog‘liq holatlarni o‘rganadi. Shu ma‘noda uning birliklari faqat fonetika sohasiga emas, tilning yuqori sath birliklariga ham tegishli bo‘ladi. Ular orqali tillararo interferensiyaning ilmiy asoslanishi til ko‘nikmalarini shakllantirish, chet tilda talaffuz me‘yorlarini aniq tasavvur qilishni ta‘minlash imkoni tug‘iladi.

4. Prosodik-intonatsion interferensiya turli tillar doirasiga mansub tillarning og‘zaki muloqot jarayonida kuzatiladigan talaffuz ko‘nikmalarining ikkinchi tilga ta‘sirini anglatadi. Bu belgi tillarning fonetik tabiati bilan bog‘liq bo‘lib, so‘zlashuvchilarning tabiiy va ijtimoiy holatlariga chambarchas bog‘liqdir.

5. Prosodik-intonatsion interferensiya tillarning o‘zaro qarindoshlik yoki noqarindoshlik belgisiga aloqador bo‘ladi. Qarindosh tillar o‘rtasida muayyan

o'xshashliklar mavjud bo'lib, noqarindosh tillarda esa bu farq sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

6. Chet tilini o'rganishda fonetik sathdan yuqori birliklar ma'no anglatganligi sababli ham muayyan shakl va ko'rinishni saqlay oladi. Ammo prosodik birliklar muayyan shaklga ega emasligi va bu ko'nikmalarni o'zlashtirish til muhiti bilan bog'liqligi sababli ulardagi farqlanishlarni tuzatish murakkablashgan tarzda kechadi. Bu masalalar esa tilning pragmatik aspektiga doir universalialarni ilmiy asoslari bilan bog'liq.

7. Prosodik-intonatsion interferensiya muloqotda o'ta muhim bo'lishi bilan birga nutqiy jarayonda eng sekin o'zgaruvchan xususiyat sanaladi. Aynan uning o'zgaruvchanligi oliy nerv sistemasi harakatlari bilan bog'liq bo'lib, u so'zlovchi nutqidagi aksentologik belgilarni ifoda etadi. Prosodik-intonatsion interferensiyaning yuzaga chiqish omillari globallashuv jarayonining jadallashuvi natijasida kamayib boradi.

8. Intonatsiya ham fonetikaning supersegment birliklari sifatida nutqdagi ijtimoiy-madaniy ma'lumotni yetkazib beruvchi vosita hisoblanadi. Eksperimental metodlarning qo'llanilishi fonetikaning tildagi aniq fanlardan biri ekanligini asosladi. Bu metodlar qator tillarning tovush tarkibini, ularning intonatsiyasini aniq va ishonchli dalillar asosida tadqiq etish imkonini berdi.

9. So'zlovchining til bilimlari talaffuz jarayonida ohang tebranishiga katta ta'sir ko'rsatadi. So'zlovchi matn mazmunini anglagan holatdagina fonetik birliklar – nutq tempi, balandlik, pastlik va boshqa turli emotsional birliklar haqiqiy ma'noda ahamiyat kasb etadi. Matn mazmuni anglashilmagan holda esa fonetik birliklar ta'siri nol darajada bo'ladi va ular matnda to'ldiruvchilik vazifasini bajarmaydi.

10. Tajribalarda matn mazmunini anglagan holda o'qilganda undagi ohang, ritm, intonatsiya va pauzalar o'z o'nida, talaffuz me'yorlariga ko'ra ishlatilgani matn mazmuni tushunilmagan holda o'qilganda intnatsion birliklarni noto'g'i qo'llab, faqat, harflarni tanish orqali o'qilganligi aniqlandi. Bu esa og'zaki va yozma matnlarning mazmun-mohiyatini anglashda fonetik birliklar va intonatsion hodisalar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

11. Tilning intonatsion sistemasi va interferensiya hodisasi xorijiy tilni mustaqil hamda muayyan ta'lim tizimi bilan bog'lagan holda o'rganuvchilar uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING
SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02
AT FERGHANA STATE UNIVERSITY**

FERGHANA STATE UNIVERSITY

YORMATOVA YOKUTHON NURMATOVNA

**INTONATIONAL SYSTEM OF THE LANGUAGE AND
INTERFERENCE**

10.00.11 – Language theory. Applied and computer linguistics

**DISSERTATION ABSTRACT FOR DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN
PHILOLOGICAL SCIENCES**

Ferghana – 2023

The theme of PhD dissertation was registered by the Higher Attestation Commission under the number B2021.3.PhD/Fil2023

The doctoral thesis has been completed at Fergana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (summary)) on the website of the Fergana State University www.fdu.uz and on the information-educational portal "ZiyoNet" (www.ziynet.uz)

Scientific supervisor: Khakimov Mukhammadkhon Khujakhonovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents: Khoshimov Ganijon Mirzaakhmedovich
Doctor of Philological Sciences, Professor
Ziyayev Avazkhon Ikhtiyarovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Leading organization: Samarkand state institute of foreign languages

Defense of the dissertation will take place on 18 avgust 2023, at 09-00 at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Fergana State University (Address: 105, B.Marginoniy Street, Fergana, 100151. Tel: (+99873 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation is available in the Information Resource centre of Fergana State University (registered under No 288). Address: 19, Murabbiylar Str., Fergana, 100151. Tel: (+99873) 244-71-28.

The abstract of the dissertation is distributed on 15 avgust 2023.
(Mailing report No 23 dated 15 avgust 2023).



Sh.M. **Sh.M. Iskandarova**
Chairman of Scientific Council
Awarding scientific degree,
Doctor of Philological Sciences, Professor

M.T. **M.T. Zokirov**
Secretary of Scientific Council
Awarding scientific degree,
Candidate of Philological Sciences, Professor

A.M. **A. Mamajonov**
Chairman of Scientific Seminar
at the Scientific Council Awarding scientific degree,
Doctor of Philological Science, Professor

INTRODUCTION (abstract of the dissertation of the doctor of Philosophy (PhD))

The actuality and significance of the dissertation work. As a result of the activation of processes between different cultures in the context of globalization and digital economy in world linguistics, a number of studies aimed at solving language and related problems are being created. Special attention is paid to the analysis of intonation, interference and bilingualism issues related to the phonetic level of linguistics.

In international linguistics, the study of intonational phenomena, interference and its specific aspects, as well as the language units that create it, serves for the development of various fields of linguistics, such as psycholinguistics, sociolinguistics, and contact linguistics. Until now, the main attention in the research carried out in world linguistics has been focused on studying the theoretical features of the problem, and in the comparative-experimental research on the speech of students of English as a foreign language, the cases of interference of Uzbek speakers have not been sufficiently studied.

In our country, a number of scientific researches are being carried out on the study of linguistics and interlinguistic relations. In such studies, the diversity of the discursive situation in the manifestation of language contacts, the issues of separating the psychological and linguistic aspects of speech are highlighted, and the clarification of interference situations in the speech of Uzbek speakers is one of the important tasks facing Uzbek linguistics today. Today, in our country, special attention is paid to issues such as "Maintaining the purity of the state language, enriching it, increasing its prestige as a language of science, ensuring its active integration into modern information technologies and communications, increasing its position and prestige at the international level, and developing foreign cooperation relations"³⁸. The focus will serve to raise the research of the national language on a scientific-theoretical and scientific-practical basis to a new level, to define various tasks and issues related to them. As Uzbekistan is facing the world, it is important to carry out general theoretical research in line with theoretically leading directions in the field of linguistics, to create a cross-linguistic comparative linguistic description of the prosodic problems of Uzbek speakers in pronouncing English texts.

The given dissertation has been fulfilled according to the requirements of the following laws and regularities as the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-2789 of February 17, 2017 "On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, the organization, management and financing of scientific and research activities", dated February 20, 2017 "Thirty years after the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan", No. PD-2909 "On Further Development of the Higher Education System", No. PQ-4479 of October 4, 2019 "On the State Language" on the wide celebration of the

³⁸Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-6084-сонли Фармони. Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. –Тошкент, 2020 йил 20 октябрь.

anniversary", No. PD-5847 of October 8, 2019 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030", No. PF-6084 of October 20, 2020 "On measures to further develop the Uzbek language in our country and improve the language policy", No. PF-6108 of November 6, 2020 "Education in the period of new development of Uzbekistan on measures to develop the fields of education and science", No. PD-5117 of May 19, 2021 "Measures to bring the popularization of learning foreign languages to a qualitatively new level in the Republic of Uzbekistan Decree and Decision No. PD-60 of January 28, 2022 "On the development strategy of new Uzbekistan for 2022-2026", and other regulatory legal documents related to this activity.

The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technologies. This study was carried out in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state."

